

## 1.Mavzu:Biologiya fanining predmeti, metodlari va uning rivojlanish bosqichlari

**Biologiya fanining maqsad va vazifalari.** Biologiya tirik organizmlarning tuzilishi, o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiiy jamoalar va yashash muhiti bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi. Biologiya atamasi 1802-yilda fransuz olimi J. B. Lamarck va nemis olimi G.R. Treviranus tomonidan bir-biridan mustasno tarzda fanga kiritilgan bo‘lib, lotincha *bios* – “hayot”, *logos* – “ta’limot” degan ma’noni bildiradi.

**Biologik bilimlarning ahamiyati.** Insonlar salomatligini saqlash, turli kasalliklarni davolash va ularning oldini olish, inson umrini uzaytirish, tabiatdagi noyob o‘simliklar va hayvonlar turlarini muhofaza qilish, hosildor o‘simlik navlari, mahsuldor hayvon zotlari, yangi xususiyatli mikroorganizmlar shtammlarini yaratish, insoniyatni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash kabi muhim muammolarni hal etish biologiya sohasining rivojiga bog‘liq. Biologik bilimlar olamning ilmiy manzarasini kengaytirish imkonini beradi.



Biologiya fani tibbiyot va qishloq xo‘jaligi bilan uzviy bog‘liq. Tirik organizmlarning organlar sistemalari tuzilishi va funksiyasi tamoyillarini o‘rganish texnika va qurilish sohasida o‘ziga xos yechimlarni topishga yordam beradi. Ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan biotexnologiya oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muammolarni hal etishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Biotexnologiya sanoat va qishloq xo‘jaligi chiqindilarini biologik qayta ishlash orqali inson hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsiz bo‘lgan yoqilg‘i turlarini olishga imkon beradi. Biotexnologik usullar yordamida hozirgi kunda antibiotik, ferment va gormonlar olinmoqda.



**Biologiya fani muammo va vazifalari.** Insoniyat oldida turgan muhim muammolardan biri tabiatdagi biologik xilmaxillikni asrash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, global iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'sirini kamaytirish hisoblanadi. Inson salomatligiga tahdid solayotgan allergik, yuqumli va epidemiologik kasalliklarning oldini olish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, suv va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish zarur. Tabiatda turlar xilmaxilligi amayishining oldini olish, hayvonlar, o'simliklar genofondini saqlash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, sanoat va qishloq xo'jaligi, transport va maishiy chiqindilarni qayta ishlash, tabiat ifloslanishining oldini olish biologiyaning muhim vazifalari hisoblanadi.

